



## Islahotlar sarhisobi

“To‘rt yil avval avtohalokatga uchrab, o‘ng oyog‘im qattiq jarohatlandi. Uzoq vaqt davolandim, keyin protez olish uchun tegishli idoralarga ko‘mak so‘rab bordim. Ular bergan hujjat asosida protez vositalari ishlab chiqariladigan korxonaga bir necha bor murojaat qildim. “Ehtiyot qismlar yo‘q, keyinroq kelimg“, degan javobdan so‘ng bu ishdan natija bo‘lishiga ko‘zim yetmay, boshqa yo‘llar orqali olish harakatiga tushdim. Amallab protez sotib olib, foydalanib kelayotgandim.



## MEHR VA KO‘MAK

### IJTIMOYIY XIZMAT TO‘G‘RI YO‘LGA QO‘YILSA, EHTIYOJMAND FUQAROLAR JAMIYATDA O‘Z O‘RNINI TOPADI

2024-yil bahor fasli edi. Bir kuni eshik taqilladi, chiqsam, mahallada ish boshlagan ijtimoiy xodim kelibdi. “Siz anchadan beri protez olmagani ekan, qandoq yuribsiz, ahvolingiz qanday?” deb so‘radi. Eskisi bilan amallab yurganimni aytdim. Shunda u yigit ijtimoiy himoya bo‘yicha yangi agentlik

ochilgani, ko‘makka muhtojlar holidan birmabir xabar olinayotganini aytib, shaxsiy ma‘lumotlarim va telefon raqamimni yozib ketdi.

Davomi 3-betda

## 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

# YURTGA SADOQAT



### UNI HIMOYA QILISH, CHEKSIZ SEVISH HAR QANDAY INSONNING HAQIQIY VATANPARVARLIK FAZILATI HISOBLANADI

Yana sanoqli kunlardan keyin O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayrami keng nishonlanadi.

Qurolli Kuchlarimiz bugungi kunda nafaqat yurtimiz tinchligi va osoyishtaligining tayanchi, balki o‘zbek xalqi vatanparvarligi, birligi va qudratining haqiqiy ramziga aylandi.

Vatan bu — ming yillar mobaynida sayqallanib, kishilar ruhiga ilhom beruvchi, mard o‘g‘lonlarni jasoratga, kerak bo‘lsa, ona zamin uchun borini berishga undovchi muqaddas tuyg‘u. Milliy g‘urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo‘lmog‘i kerak.

Vatanparvarlik — Vataning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev aytganidek: “Bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson, ayniqsa, yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining roli va ahamiyati ortib bormoqda.

O‘z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday qudratli qurolgaga ega bo‘lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi”.



Davomi 2-betda

## Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga

ADIBLAR XIYOBONI



# TURKISTON JADIDLIK HARAKATI OTASI

2020-yil 25-yanvarda “Yangi O‘zbekiston” gazetasining nishona soni o‘quvchilar qo‘liga yetib borgan edi. Unda davlatimiz rahbarining Oliy Majlisa yo‘llagan Murojaatnomasi chop etilgandi. Ana o‘sha zalvorli ma‘ruza mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, qolaversa, Prezidentimiz tashabbusi bilan dunyo yuzini ko‘rgan yangi gazetaning istiqboldagi keng ko‘lamli maqsad va vazifalarini belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari bildirgan o‘sha davr uchun juda zarur va dolzarb mavzular qatorida “2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma‘rifat mash‘alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma‘naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa,

yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadriini anglab yetadi”, degan so‘zlar millatimiz ziyolilari kutgan, ko‘ngillarga nur indirgan gap bo‘ldi.

O‘sha yili buyuk ma‘rifatparvar, yozuvchi, publisist, dramaturg va jamoat arbobi, jadidlik harakatining yetakchilaridan biri, millat va til fidoyisi Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab tadbirlar — xalqaro konferensiya, ilmiy anjuman, adabiy kechalar o‘tkazildi, olim va yozuvchilarning maqola hamda risolalari e‘lon qilindi, teatr asarlari sahnalashtirilib, badiiy-hujjatli filmlar

suratga olindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bajarilgan eng ezgu ishlarning yana biri sifatida bo‘y ko‘rsatgan Adiblar xiyoboni millat fidoyilarining cheksiz ilm-u ziyosi bilan nurlandi. Poytaxtimizda barpo etilgan maskandan Mahmudxo‘ja Behbudiyning muazzam haykali o‘rin oldi. Samarqand shahrida bobomizning uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e‘tirof etildi. Davlatimiz rahbari farmoniga ko‘ra, alloma “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Davomi 6-betda

## “EKOLOGIK IZ” “YASHIL” IQTISODIYOT ORQALI O‘CHIRILADI

Inson o‘z ehtiyoji uchun turli obyektlar barpo etish, mahsulotlar ishlab chiqarish, oziq-ovqat, energetika, suv hamda xomashyo manbalaridan foydalanish jarayonida tabiatga muayyan darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu ta‘sir, masalan, “uglerod izi” yoki “suv izi” kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadigan “ekologik iz” sifatida namoyon bo‘ladi. Afsuski, bu ko‘p hollarda tabiat va atrof-muhit uchun zararli oqibatlar keltirib chiqaradi.

Mazkur zararni kamaytirish uchun iqtisodiy faoliyatni mutanosib va barqaror rivojlantirish talab etiladi. Bunda qayta tiklanuvchi energetika manbalariga e‘tibor qaratgan holda energiya ishlab chiqarishni ekologik jihatdan samarali yo‘lga qo‘yish, suv hamda yer resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindini qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, tabiatni tiklash va muhofaza qilish strategiyalarini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu yo‘nalishda iqtisodiy jarayonlar “yashil” iqtisodiyot

modeli asosida takomillashtirilishi kerak. Ya‘ni iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o‘sishni nazarda tutish, balki iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarni yengillashtirish, tabiiy resurslarning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlash, sayyoramizdagi ekologik muvozanatni saqlashni ham maqsad qilib olishi lozim. Bu esa jamiyat, iqtisodiyot va ekologiya manfaatlarini yaxlit holda ko‘rib chiqib, ularni uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Davomi 4-betda

## CHEKSIZ IMKONIYATLAR RO‘YOBI

HAR TOMONLAMA YETUK AVLODNI TARBİYALASH –

ZAMON TALABI

## Ta‘lim odimlari

Zamon shiddat bilan rivojlanyapti. Bugungi dunyoning eng katta boyligi inson kapitali bo‘lib qolmoqda. Ta‘limga yo‘naltirilgan investitsiya kun kelib, aqlli boshlar yetishib chiqishiga zamin hozirlashi, bu o‘z o‘rnida yurt taraqqiyotiga xizmat qilishi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma‘lum. Imom Buxoriyning “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”, degan mashhur hikmati Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yilayotgan shu kunlarda yanada katta ahamiyat kasb etayotir. Najot ta‘limda ekan, bolaga ilk yoshlardan oq zarur ta‘lim-tarbiya berilmog‘i kun tartibidagi masalalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Davomi 5-betda



Boqiy meros

## KURASHLARDA TOBLANIB

YOXUD MOZIY BAG‘RIDAGI QADRIYAT

Xalqlarning shakllanishi, jamiyatlarning har tomonlama taraqqiy etishida qadriyatlarining o‘rni katta. Ular asrlar davomida insoniyatning yashash to‘g‘risidagi qarashlarini aks ettirgan boy madaniy merosdir. O‘tmishi uzoq davrga borib taqaladigan kurash o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri. Bu sport turi qadimdan er yigitlarning jismoniy hamda ma‘naviy yetuklik namunasini o‘laroq qadrlangan. Bejiz ota-bobolarimiz kurashni “tarbiya maktabi” deyishmagan. Boisi, shaxs komilligi uning aqliy, ma‘naviy va jismoniy jihatdan tarbiya topishiga bog‘liq.

Yurtimizda so‘nggi yillarda milliy sport turlarini ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, yoshlarni sportga jalb qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kurashni rivojlantirish bo‘yicha ham. Prezidentimizning 2020-yil 4-noyabr kuni imzolangan “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori buning yaqqol dalilidir.

Davomi 5-betda





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

Boshlanishi 1-betda

Harbiy yo'nalishdagi o'qituvchilarning asosiy vazifasi ham Vatanni jon-jonidan sevuvchi, uning ravnaqi va ozodligi uchun elim, yurtim deb yonib yashaydigan mard o'g'lonlar, haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Bu tarbiya, albatta, axloqiy, mehnat, estetik, siyosiy hamda jismoniy turlar bilan uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak. Tarbiya turlari orasida harbiy-vatanparvarlik muhim o'rin egallaydi.

O'tgan sakkiz yilda milliy armiyamizni isloh qilish, Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasini va dislokatsiya tizimini takomillashtirish, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog' va texnika namunalari bilan jihozlash, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi va shayligi, kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu davrda bo'linmalarining texnik va zaxira ta'minoti tizimi tubdan qayta ko'rib chiqildi, a'loqasiz xizmatlari va harbiy klasterlar tizimi joriy qilindi. Mudofaa sanoati majmuasi korxonalarini faol rivojlantirilmog'ida, ayrim turdagi qurol-yarog' va texnika turlarini ishlab chiqarish



**Shuhrat HOTAMOV,**  
Jamoat xavfsizligi universiteti  
dotsenti, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori,  
polkovnik

va modernizatsiya qilishni mahalliyashtirish boshlandi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, "Jasorat maktablari" dagi o'quv yig'inlariga 5 mingdan ziyod yoshlar jalb qilindi. Harbiy shaharchalarda "Temir daftar"ga kirgan oilalarning farzandlari uchun fan, sport va san'at turlari bo'yicha to'garak va seksiyalar tashkil etish, ularni brigada komandirlari hamda harbiy okrug qo'mondonlariga birlashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi kuchaytirildi. Amalgah oshirilgan ishlar natijasida qo'shinlarning jangovar tayyorgarlik samaradorligi, harbiy xizmatchilarning professionaligi, jangovar ruhi va psixologik shayligi sezilarli darajada oshdi. Harbiy oliy ta'lim muassasalari

faoliyatida harbiy kadrlarni ilg'or texnologiyalar asosida tayyorlash bo'yicha yangi tizim joriy qilindi. Bundan tashqari, harbiy sohani raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Qo'shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmog'ida, aloqa tizimlari takomillashtirilmog'ida.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilandi. Xususan, Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, qo'shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish ana shular jumlasidan.

Xususan, Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlari, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy mudofaa tadbirlarida o'quvchi yoshlar Qurolli Kuchlarimiz saffaridagi bo'lajak xizmatlari va Vatanimiz himoyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtiradi. Ular bu mashg'ulotlar va tadbirlar davomida harbiy ish va xizmat asoslarida dastlabki ma'lumotlarni oladi. Qurolli Kuchlarimiz



Inson qadri uchun, inson baxti uchun!

## MAS'ULLIK O'N KARRAGA OSHDI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga yo'llagan Yangi yil tabrigida "Inson qadri uchun, inson baxti uchun!" degan olifanob maqsad yana bir bor tilga olindiki, ushbu e'zgu maqsadni amalga oshirish, shubhasiz, barchamiz, ayniqsa, milliy iqtisodiyotimizning asosiy ustuniga aylangan mahalliy tadbirkorlar zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi.



USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Zero, tabrikda 2025-yilda biznes uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilishi, jumladan, xususiy mulk daxsizligini ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish ishlari qat'iy davom ettirilishi ta'kidlandi. Demak, Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili millionlab tadbirkorlarimiz uchun qo'shimcha imkoniyat va imtiyozlar yili bo'ladi.

Tahillarga ko'ra, yangi O'zbekistonda boshqa soha va tizimlar qatori tadbirkorlik faoliyati ham izchil rivojlanib, yildan yilga mulkdorlar soni ortyapti. Agar 2019-yili rasman faoliyat yuritayotgan tashkilotlar soni 324 mingdan ziyodni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ular soni qariyb 600 mingga yetdi. Bu yana dehqon va fermer xo'jaliklarini hisobga olmagandagi ko'rsatkich. Shu o'rinda 2022 va 2023-yillarda korxonalar va tashkilotlar soni keskin ko'payganini aytish joiz. Bunga, asosan, avvalgi yillarda yaratilgan qulay sharoit, soliq va bojxona imtiyozlari sabab bo'ldi deyish mumkin.

Ana shunday preferensiyalar tufayli xususiy

tadbirkorlik — kichik biznes o'z faoliyatini barqarorlashtirdi. Ayni paytda mikrofirmalar va kichik korxonalar soni 500 mingga yaqinlashgani shundan dalolat beradi.

Bilamizki, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, iqtisodiyotdagi depisitsiyalar, xususan, soliq tizimidagi adolatsizlik tadbirkorlikning bosh kushandasi hisoblanadi. Bunday sharoitda tadbirkor o'z ishini to'xtatadi yoki negaleg yo'llar qidiradi. Ishonchsizlik tufayli hatto tadbirkorlar boshqa qulay hududlarni izlay boshlaydi.

Ming shukrki, yangi O'zbekistomni barpo etish yo'lidagi islohotlar davrida ana shunday ishonchsizliklarga barham berildi. Ya'ni mamlakatimizda xususiy sektor rivojiga strategik yondashuv paydo bo'lgani tadbirkorlarning ertangi kunga ishonchini mustahkamladi. Buni 2024-yilda 50 mingdan ziyod yangi tadbirkorlik tuzilmalari ro'yxatdan o'tganida ham ko'rish mumkin.

Eng muhimi, bunga yangi O'zbekiston islohotlarining har bir qadamini huquqiy asosga tayanganini sabab bo'lmoqda. Joriy



**Ta'lim-tarbiya masalasi doim har bir davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Sababi, dunyodagi rivojlangan davlatlar tarixiy tajribasiga nazar tashlasak, avvalo, ularda butun jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan har bir islohot ta'lim tizimidan boshlangan. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosi, poydevori harbiy ta'lim muassasalari hisoblanadi.**

tarixi, bugungi kundagi faoliyati va salohiyati, qo'shin turlari, ularning vazifalari, xizmat qilish tartiblari kabi zarur bilimlarni chuqur o'rganadi.

Tarixdan ma'lumki, ko'p urushlar natijasi jang qilayotgan tomonlar qo'shinlarining ruhiy holatiga bog'liq bo'lgan. Demak, bizning vazifamiz o'z Vatanga cheksiz sadoqatli, ruhiy jihatdan yetuk yosh avlodni tarbiyalash, ularda Vatan ravnaqi, mustaqilligi uchun zarur bo'lsa, jonini fido etishga tayyor bo'lishdek xislatlarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan harbiy sohada islohotlarda harbiy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda zamon talablariga mos oliy harbiy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda qo'mondonlik va texnik kadrlar tayyorlaydigan, bir necha o'quv muassasalarini birlashtirgan ko'p bosqichli harbiy ta'lim tizimi yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti shulardan biri. Ushbu



oliy harbiy muassasaning tashkil etilishi va mazkur sohada malakali ofitser kadrlarni tayyorlashi fikrimiz tasdig'idir.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 15-apreldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida qayta tashkil topgan ushbu maskan malakali kadrlarni maqsadli tayyorlaydigan oliy harbiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 29-avgust kuni Jamoat xavfsizligi universitetiga tashrif chog'ida universitetning kapital ta'mirlangan o'quv binolari, sport majmuasi va o'quv-uslubiy situatsion markazi hamda har biri 300 o'ringa mo'ljallangan 6 ta zamonaviy yotoqxonalar sharoitlarini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz ofitser va kursantlar bilan muloqotda dual ta'limni keng joriy qilish, o'quv dasturini bugungi xavf-xatarlarga moslashtirib borish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Ushbu harbiy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan kursantlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, o'quv xonalari keng va yorug', zamonaviy texnikalar bilan ta'minlangan.

**Harbiy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan kursantlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, o'quv xonalari keng va yorug', zamonaviy texnikalar bilan ta'minlangan. Axborot-resurs markazida 90 mingdan ziyod adabiyot va o'quv qo'llanmasi, 10 mingdan ortiq elektron adabiyotlar mavjud. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va oliy ta'lim muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi bazalariga ulangan.**

Axborot-resurs markazida 90 mingdan ziyod adabiyot va o'quv qo'llanmasi, 10 mingdan ortiq elektron adabiyotlar mavjud. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va oliy ta'lim muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi bazalariga ulangan.

Shuningdek, davlatimiz rahbari universitetning yangi sport majmuasini ham ko'zdan kechirdi. Ikki qavatli majmuada basseyn, trenajyor va krosfitzali, boks, ko'pkurash maydonlari tashkil etilgan. Sport zalida gimnastika, mini futbol, gandbol, voleybol, basketbol, stol tennis bilan birga balandlik tayyorgarligi va evakuatsiya mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, universitetga 2021/2022-o'quv yilidan boshlab fuqarolik talabalar qabul qilina boshlagan. Bakalavriatda 15, magistraturada 8 yo'nalish bor. Bugungi kunda bakalavriatda mingdan ortiq kursant, maxsus yo'nalish, sirtqi ta'lim va magistraturada yana shuncha yoshlar tahsil olyapti. Ularga jami 209 nafar o'qituvchi, professor va fan doktorlari saboq bermoqda. Harbiy ta'lim muassasasining ilmiy salohiyati ham kundan kunga oshib boryapti. Tashkil etilgan yili bu bor-yo'g'i 10 foiz bo'lsa, ayni paytda 75 foizdan ortiqligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya masalasi doim har bir davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Sababi, dunyodagi rivojlangan davlatlar tarixiy tajribasiga nazar tashlasak, avvalo, ularda butun jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan har bir islohot ta'lim tizimidan boshlangan. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosi, poydevori harbiy ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Bizning asosiy vazifamiz ham yoshlarni ana shu jarayonga jalb qilish, ular ongiga O'zbekiston kelajagi aynan yoshlar qo'lida ekanini singdirish, kundalik mashg'ulotlar, turli tadbirlar davomida ularni vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini uyg'otishdir.

ko'proq mehnat qilishlari lozimligini, chunki puxta bilim, professional malaka, yuksak fazilat va tafakkurga ega deputatgina quruq gap va populizmdan yiroq bo'lishini ta'kidladi.

"Yana bir muhim masala — parlament qo'mitalari vazirlar bilan ishlashda faqat nazorat va talab etish emas, balki ular bilan yaqindan hamkorlik qilishga ahamiyat bersa, ayni muddao bo'ladi.

Eng katta kamchilik — vazirlar quyidagi bo'g'inda, ayniqsa, tuman va shahar darajasida samarali ish tashkil etolmayapti. Endi aholi bilan bevosita muloqot qilib, odamlarni qiyinayotgan muammolarni joyida hal etish ular uchun bosh vazifa bo'lishi kerak. Bundan buyon har bir rahbar va mutasaddi faoliyatiga aynan shu mezon asosida baho beriladi. Talabga javob beradigan rahbarlar ishlaydi, bo'lmasa, ular bilan xayrlashamiz.

**Hurmatli deputatlarimiz ham vakolatlari doirasida o'z okruglaridagi tuman va shahar darajasida so'rov va talabni hech tortinmasdan kuchaytirishlari kerak. Chunki xalqimizning o'zi bizdan ana shunday jonbozlik ko'rsatib ishlashni talab etmoqda...**

Prezidentimizning ushbu fikrlari yangi O'zbekistonda yangicha yondashuv va qarashlarga keng o'rin berilayotganini, endi eskicha ishlab o'lmaganini anglatadi, albatta.

Bundan tashqari, har bir qo'mita qoshida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari ham tuzilyapti, bu parlament va fraksiyalar qarori, xulosasining xalqchillashiga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, endigi vazifamiz yurtdoshlarimizning huquq va manfaatlarini parlament va deputatlik vakolatidan to'g'ri foydalanib, samarali himoya qilishdan iborat.

“ Bugungi kunda kambag'al oilalarda o'zi harakatlanmaydigan 23 ming odamga ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari, aka-ukasi yoki opa-singlisi qarab o'tiribdi. Joriy yildan mahalladagi ijtimoiy xodimlar va xususiy sektor ishtirokida bu odamlarning 19 ming nafariga uyida, 4000 kishiga kunduzgi qatnov asosida qarab turish yo'liga qo'yiladi. Natijada yaqin kishisiga qarab turgan 15 ming aholining ishlashiga sharoit yaratiladi.



“ Mahalladagi ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, yakunlangan yil mobaynida reyestrda bo'lmagan yana 95 ming muhtojga yordam ko'rsatdi. 51 ming odamga nogironlik belgilandi, 26 ming kishi protez oldi, nogironligi bor 5 ming bola bog'cha, maktabga joylashdi. Bundan tashqari, muhtoj bo'lmaganlarga asossiz nafaqa to'lashning oldi olindi, qisqargan xarajatlar budjetda qoldirildi.

## Islahotlar sarhisobi

### Boshlanishi 1-betda

Uch kun o'tmasdan telefon qilib chaqirdi, borsam menga yangi protez tayyorlab qo'yishgan ekan, kiyib ko'rsam oyog'imga qolipday tushdi, yengil, sifatli, har tomonlama qulay. To'g'risi, bunday imkoniyat bo'lishi yetti uxlab tushimga ham kirmagan edi. O'shandan beri kiyib yuribman, oyog'im but bo'ldi go'yo. Ko'chadagi ishlarimni bemalol bitkazib kelaman, xohlasam sayrga ham chiqib ketaveraman. Bundan quvonmay bo'ladim! Biz, muhtojlarni qo'llab-quvvatlab, g'amxo'rlik ko'rsatayotgani uchun Prezidentimizga ming rahmat”.

Toshkentlik Nasrulla Ismatullayevning bu so'zlari vurtimizda buen amalea

evaziga 100 ming odamning ehtiyoji ta'minlandi. Eng muhimi, endilikda bunday vositalarga ehtiyoji bor insonlar o'ziga kerakli bo'lgan mahsulotni elektron tizimda o'zi tanlayapti. Bu ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat va sifat yaxshilanishiga ham zamin yaratmoqda.

Mahalladagi ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, yakunlangan yil mobaynida reyestrda bo'lmagan yana 95 ming muhtojga yordam ko'rsatdi. 51 ming odamga nogironlik belgilandi, 26 ming kishi protez oldi, nogironligi bor 5 ming bola bog'cha, maktabga joylashdi. Bundan tashqari, muhtoj bo'lmaganlarga asossiz nafaqa to'lashning oldi olindi, qisqargan xarajatlar budjetda qoldirildi.

Ijtimoiy himoya, avvalo, insonning huquq va manfaatlarini ta'minlash, deganidir. Bu borada



# MEHR VA KO'MAK

## IJTIMOYIY XIZMAT TO'G'RI YO'LGA QO'YILSA, EHTIYOJMAND FUQAROLAR JAMIYATDA O'Z O'RNINI TOPADI

### Bahor XIDIROVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

oshirilayotgan insonparvar ijtimoiy siyosat tufayli hayotiga yorug'lik ingan minglab insonlarning ham ko'nglida jo'sh urmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularning hayotiga mazmun, baxtiyorlik baxsh etayotgan bunday o'zgarishlarga o'z-o'zidan erishilmagani ham haqiqat.

Zero, bu soha 30 yil oldingi tizimda qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug'ullangan. Bu ayrim odamlarni o'zini o'nlab olishga emas, yordam kutib yashashga o'rgatib qo'yg'an. Misol uchun, mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to'lab kelingan. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, kasbga o'rgatish orqali hayotga qaytarishga yetarlicha e'tibor berilmagan.

2024-yil 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari bu tizimni tubdan isloh qilish, ijtimoiy yordamning manzilligini va natijadorligini ta'minlash zarurligini ta'kidlab, “Bu sohada umumiy ishlash bo'lmaydi. Har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'liga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topadi”, degandi.

Mazkur yig'ilishda shu boradagi ustuvor vazifalar belgilandi, avvalo, ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgandi.

### 62 maqsadga jamlangan farovonlik

2024-yil mobaynida bu yo'nalishda yana bir qator tadbirlar o'tkazildi, huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Natijada jamiyatimizning boshqa sohalariga qatorida ijtimoiy himoya tizimida ham ko'plab yangilik va o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, mutaxassislar ta'kidlashicha, birgina o'tgan yilning o'zida Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha 34 ta muhim yangilik ilgari surildi va shu asosda ish olib borildi.

Davlatimiz rahbari raisligida 13-dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida yana 28 ta yangi tashabbus ilgari surildi. Shuni quvonarliki, bunday muhim g'oya va tashabbuslar soha uchun butunlay yangilik bo'lib, qog'ozda qolib ketayotgani yo'q, buning samarasi xalqimiz, ayniqsa, kambag'al oilalar, o'zgarar ko'magiga muhtoj insonlarning hayotida katta o'zgarish yasamoqda. Buni har birimiz o'z yaqinlarimiz, qo'ni-qo'shimiz, qolaversa, kambag'al oilalarning hayoti yaxshilanayotgani, nogironligi bor shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtiroki tobora kengayib borayotgani misolida yaqqol his etib turibmiz.

Bu o'zgarishlarni aniq misollar asosida ifoda etadigan bo'lsak, 2024-yilda 102 ta ijtimoiy xizmat mahalla darajasiga tushirildi. Masalan, oldin odamlar protez uchun har xil komissiyalar va poliklinikada 2 oy sarson bo'lgan bo'lsa, hozir bu masala ikki haftada mahallada hal bo'lmoqda. Nogironligi borlarga beriladigan protez va reabilitatsiya vositalari ro'yxati 18 tadan 30 taga, mablag'i esa 1,5 barobarga oshirildi. Buning

Bundan tashqari, hozirgi kunda “Saxovat va ko'mak” jamg'armasidan mablag' ajratish “mahalla yettligi” ning kollegial qarori orqali joylarda adolati va shaffof tarzda amalga oshirilmoqda. Bu yangilik ham ajratilgan yordam aniq manzilga yetib borishini ta'minlash va xalqimizni rozi qilishga xizmat qilayapti. Qolaversa, oldin nogironlik guruhini belgilash yoki guruhini

o'zgartirish maqsadida oilaviy poliklinikalarga hujjat ko'tarib yurilgan bo'lsa, endilikda aynan ijtimoiy xodim orqali mahallada yoki fuqaroning yashash xonadonida nogironlik guruhi belgilanayapti yoki o'zgartirilmoqda. Sanatori va sihatgohlarda davolanishi uchun onlayn tarzda arizalar qabul qilinib, raqamlashtirilgan holda ovoragarchilik amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yolg'iz keksalarga hozirgi kunga qadar faqatgina maishiy xizmatlar ko'rsatib

### Ijtimoiy karta nima uchun kerak?

Ayni paytda ijtimoiy himoya tizimi yurtimiz bo'yab shu taxlit kengayib, takomillashib bormoqda. Uning o'ziga xos jihatlari va afzalliklarini aniq ifoda etish maqsadida yangiliklarning joriy etilishi va ularning samaralarini quyidagi tartibga sanab o'tsak.

Endilikda bu yo'nalishdagi ishlar kengaytirilib, sohaga xususiy sektorni olib kirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Ya'ni tadbirkorlarga har bir bola uchun kuniga 100 ming so'mdan subsidiya, xonalarni jihozlashga 30 million so'mgacha arzon kredit ajratiladi. Buning hisobiga Qoraqalpog'iston, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida nogironligi bor 2 ming bolani kunduzgi parvarishlash tizimi yo'liga qo'yiladi. Bu tizim 1-oktabrgacha qolgan viloyatlarda ham joriy qilinadi.

Bugungi kunda kambag'al oilalarda o'zi harakatlanmaydigan 23 ming odamga ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari, aka-ukasi yoki opa-singlisi qarab o'tiribdi. Joriy yildan mahalladagi ijtimoiy xodimlar va xususiy sektor ishtirokida bu odamlarning 19 ming nafariga uyida, 4000 kishiga kunduzgi qatnov asosida qarab turish yo'liga qo'yiladi. Natijada yaqin kishisiga qarab turgan 15 ming aholining ishlashiga sharoit yaratiladi. Xususiy sektor vakillariga shunday xizmat uchun xarajatlarining 80 foizi talab tomonidan qoplab beriladi. Ushbu tajriba Toshkent shahrida 1-martgacha, boshqa hududlarda yil yakunigacha yo'liga qo'yiladi. Bu yurtimizda yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat yanada yuqori, yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Sporn — salomatlik garovi. Jismonan faol bo'lgan inson o'qishda ham, ishda ham yaxshi natijalarga erishadi. Nogironligi bor insonlarning ham sog'lig'ini asrash va ruhiy holatini yaxshilashda sportning ahamiyati katta.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda nogironligi bor odamlarga to'g'ri keladigan 100 dan ortiq sport turi bor. Lekin bizda bunday odamlarga sport bilan shug'ullanishga faqat 22 ta tur bo'yicha tibbiy xulosa beriladi. Endilikda xalqaro andozalar asosida nogironligi borlarga sport turlari ham kengaytiriladi, ularning bunga layoqati kasallik turga qarab avtomatik belgilanadi. Natijada sport bilan shug'ullanishga yo'llanma olishi mumkin bo'lgan nogironligi borlar soni 286 mingdan 440 mingga oshadi.

Joriy yilda adaptiv sport qamrovini 1,6 barobarga oshirib, 45 mingga yetkazish ko'zda tutilgan. Ularni sport bilan shug'ullantiradigan murabbiylar oyligi 1-yanvardan 1,5 barobar oshirildi. Joylardagi 130 ta sport maktabi, 90 ta maxsus ta'lim muassasasi va 29 ta “Muruvvat” uyidagi sport obyektlari adaptiv sport turlariga moslashtirildi. Hududlarda 300 ta yangi “vorkaut” maydonchalari qurildi, ularda ham xuddi shunday sharoitlar bo'ladi.

Kasallik turidan kelib chiqib, aholiga uy sharoitida bajara oladigan oddiy mashqlarni o'rgatish orqali ham minglab odamlar sog'lig'ini tiklash mumkin. Mahalladagi ijtimoiy xodimlar nogironligi bor shaxslar xonadoniga uy sharoitida qilinadigan mashqlar dasturi va sog'lom ovqatlanish tartibini eslatma qilib tarqatishi belgilangan. Bu ham ijtimoiy xizmatlar samaradorligini yanada oshiradi.

Kambag'al oila farzandlarini chet tili, axborot texnologiyalari va kasb-hunarga o'qitish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilayotgani ham muhim yangilik bo'ldi. Xususan, chet tiliga 40 ming, kasb-hunarga 15 ming, axborot texnologiyalari bo'yicha 7 ming, to'garaklarga 31 ming yoshlar jalb qilinadi, 25 ming nafar yoshlar oliygo'ha tayyorlanadi. Kosonsoy va Toyloq tumani tajribasi asosida har bir tumanda “Ilk rivojlanish markazi” da mashg'ulotlar tashkil etilib, shu orqali kambag'al oila farzandlaridan 135 ming nafari maktabgacha ta'limga qamrab olinadi.



“ KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINI CHET TILI, AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KASB-HUNARGA O'QITISH UCHUN QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR YARATILAYOTGANI HAM MUHIM YANGILIK BO'LDI. XUSUSAN, CHET TILIGA 40 MING, KASB-HUNARGA 15 MING, AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA 7 MING, TO'GARAKLARGA 31 MING YOSHLAR JALB QILINADI, 25 MING NAFAR YOSHLAR OLIYGOHGA TAYYORLANADI.

Eng muhim yo'nalishlardan biri bu — ijtimoiy karta tizimi. Hozirgi kunda 65 turdagi ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun fuqarolarimiz tug'ilganlik, nogironlik to'g'risida, pensiya, talabaliq guvohnomasi, bank kartasi kabi 10 dan ortiq hujjatni ko'tarib yurishga majbur.

Prezidentimiz bunday ovoragarchilikka chek qo'yish vaqti kelganini ta'kidlab, barcha hujjatlar o'rnini bosadigan bitta hujjat — ijtimoiy karta joriy etilishini e'lon qildi. Ijtimoiy karta bilan avtobus va metroda bepul yurish, elektr, gaz va o'qish xarajatiga kompensatsiya olish mumkin bo'ladi, nafaqa va yordam pullari ham shu kartaga tushadi. Bu tizim 1-iyulgacha Toshkent shahri va Yangiyo'l tumanida sinovdan o'tkaziladi, yil yakunigacha hamma joyda ishga tushiriladi.

Yana bir tajriba — 2024-yil nogironligi bor bolalar uchun 73 ta kunduzgi parvarishlash va “G'amxo'rlik” guruhlari tashkil qilindi. Ijtimoiy himoya milliy agentligidan ma'lum qilishlaricha, mazkur guruhlarga 500 dan ortiq o'g'ir turdagi nogironligi bo'lgan bolalar yo'naltirilgan. Ularning “G'amxo'rlik” guruhlariga qatnashi natijasida ota-onalari yoki o'rni bosuvchi shaxslarga ijtimoiy hordiq olish va biror-bir mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyati yaratib berildi. Ushbu guruhlar har bir bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyalash va jamiyatga moslashishda oilaga yaqindan yordam bermoqda.

kelingan bo'lsa, endi bosqichma-bosqich ushbu xizmatni ko'rsatish uchun xususiy sektordan tadbirkorlar jalb etilyapti. Bu yo'nalishda Mirzo Ulug'bek tumanidan eksperiment tariqasida “Hamroh” xususiy tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi korxonaga 41 nafar yolg'iz keksalar autorsing asosida birlashtirildi. Ularga uylarida kompleks tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmati ko'rsatilyapti.

### Yuraklarga mehr urug'ini ekayotgan ezgulik

Bugun yurtimizda ijtimoiy himoya tizimida ro'y berayotgan katta o'zgarishlar, undan bahramand bo'layotgan insonlar hayotidagi quvonchli onlarni ko'rib, o'quvchilik yillarimdagi voqealar esimga tushadi. Husan ismli qishloqdoshimiz jismoniy va ruhiy xastalik tufayli maktabga chiqa olmas edi. Biz uning uyi oldidan o'tib, maktabga qatnardi. Husanning biz, tengdoshlariga havas bilan qarab turganini ko'rib, uning xastaligiga ishonimga berilmasdi. Nazarimda unga ozgina mehr va e'tibor berilsa, sog'ayib ketadigandek tuyulardi. Ammo sinfdoshlarimning “Ehtiyot bo'li, jig'iga tegma, bexosdan tashlab qoladi”, degan gaplarini eslab, uning yonidan tezgina o'tib ketardim.

Yaqinda bekatda avtobus kutib turganimda xuddi qishloqdoshimiz Husonga o'xshab oqsoqlanib ketayotgan bir nimjonga bolani ko'rib qoldim. Jismoniy va ruhiy nuqsoni sezilib turgan bu bola yolg'iz emasi, 3-4 tengdoshi unga hamrohlik qilib, biri sumkasini ko'tarar, yana biri uni qo'lidan yetaklab borardi. O'quvchilar yo'li-yolay nimanidir qizg'in muhokama qilib ketyapti, boyagi bola ham tutilib-tutilib bo'lsa-da, gapga qo'shiladi. Sinfdoshlari ham uning fikriga quloq tutadi. Ular birgalashib avtobusga chiqib ketdi. Bu holatni ko'rib, demak, mehr va e'tibordam ham gap ko'p, degan qarorga keldim.

Ko'makka muhtoj do'stiga jismonan va ruhan madad berayotgan bu bolalarning bunday xayrli ishlarga kichik yoshidan esh bo'lishi ularning qalbida mehr-oqibat, xayr-saxovat, olijanoblik, muhtojlarga tirgak bo'lish, yaxshilik qilishdek insoniy xislatlarning chuqur ildiz otishiga zamin yaratayotgani shubhasiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan insonparvar ijtimoiy himoya siyosati esa bu xayrli ishlar jamiyat hayotiga chuqur singishiga xizmat qilib, mitti yuraklarga mehr deb singish ezgulik urug'ini qadayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, bu jarayonda inkluziv ta'limni yo'liga qo'yish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Jumladan, yurtimizda ilk bor 530 ta maktabda inkluziv ta'lim yo'liga qo'yildi. Kelgusida bu xayrli ishlar yanada kengayib, maktablarda 954 ta inkluziv sinf ochiladi. 1867 nafar nogironligi bor bola inkluziv sinflarda o'qishi yo'liga qo'yiladi. Nogironligi bor bolalarning maktabga kelib-ketish transport xarajatlarining 75 foizgacha qismini kompensatsiya qilish tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, nogironligi bor insonlarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, zamonaviy tibbiy yordamni ularga yanada yaqinlashtirish, sog'lig'ini yaxshilash ham e'tibordam bo'ladi. Shu maqsadda viloyat, tuman shifoxonalarda reabilitatsiya xizmatlari yo'liga qo'yiladi. Nogironligi bo'lganlar uchun reabilitatsiya kafedralari ergo-terapiya, fizio-terapiya, davolash-gimnastika xizmatlari qamrovi oshirildi, tibbiy oliygo'hlarda reabilitatsiya kafedralari ochiladi. Nogironligi bo'lganlarni reabilitatsiya xizmatlari bilan qamrab olish ham kengaytiriladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash ham muhim vazifa. Bu boradagi ishlarni tashkil etishga ko'maklashgan xususiy bandlik kompaniyalariga 500 million so'mgacha grant beriladi. Buning uchun 20 milliard so'm ajratiladi.

# “EKOLOGIK IZ” “YASHIL” IQTISODIYOT

## ORQALI O'CHIRILADI



Dolzarb mavzu

Olimjon TO'YCHIYEV,  
texnika fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

2025-yil yurtimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e'lon qilindi. O'rt va uzoq muddatda iqtisodiyotni “yashillashtirish”, resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan muhim islohotlar bir necha yil avval boshlangan edi. Xususan, 2019-yilda O'zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlarini qabul qildi. 2021-yil avgustida 100 megavatt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi.

“Yashil” iqtisodiyotga o'tish choralarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralarga kengash tashkil etildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida 200 million tup daraxt ekilmoqda. 2023-yil iyunda 500 megavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi qurilishi boshlandi va shu oydin boshlab mahsulotlar ishlab chiqarishda ekologiya hamda atrof-muhitga ta'sirni cheklash bo'yicha talablar asosida “yashil sertifikat”lar tizimi joriy etildi. Sentyabrda davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida “O'zbekiston — 2030” strategiyasi ushbu nufuzli xalqaro tashkilotning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un ekanini ta'kidlab, bu yo'nalishda taklif va mulohazalarini bildirdi. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashga qaratilgan yana ko'plab samarali chora-tadbirlar ko'rib kelinmoqda.



### QUYOSH ENERGIYASINING O'RNI

“Yashil” iqtisodiyotga o'tishdagi muhim vazifalar qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish ham kiradi.

Qayta tiklanuvchi, “yashil”, muqobil energetika degan atamalar quyosh, shamol, gidroenergetika manbalari bilan yonma-yon qo'llanadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, quyosh “yashil” energiya asosidir. Yurtimizda yilning 320 kuni quyoshli. Hisob-kitoblarga ko'ra, mana shunday oftobli kunlar quyosh stansiyalarini qurish orqali 600 milliarddan ortiq kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi.

2019-2030-yillarga mo'ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasiga muvofiq, 2030-yilgacha O'zbekistonda issiqxona gazining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmasini 2010-yildagi darajadan 35 foiz kamaytirish rejalashtirilgan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energetika manbalari ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish

umumiy hajmining 30 foizidan ko'proqqa yetkazish maqsad qilingan. Mazkur strategiya doirasida quyosh energiyasidan foydalanish 7 gigavattgacha, shamol energiyasidan esa 5 gigavattgacha oshirilishi kutilmoqda. Bu 39,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini berib, atmosferaga 15,9 million tonna issiqxona gazi chiqishini va tabiiy gaz sarfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasi birinchi galdagi vazifalar sirasiga kiradi. Boisi, yurtimizda quyosh energetikasi sohasida yuqori salohiyatga ega mutaxassislarni yetishmovchiligi muammosi mavjud.

“Development of the targeted Educational program for Bachelors in Solar Energy in Uzbekistan” (DEBSEUz) loyihasi ana shu masalani hal qilishga qaratilgan tashabbuslardan. Loyiha Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida “Oliy ta'lim potensialini oshirish” yo'nalishida 2023-yilda o'tkazilgan xalqaro

tanlovda g'olib deb topilgan. U Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Evora universiteti (Portugaliya), Madrid politexnika universiteti “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti, Jizzax politexnika instituti, Farg'ona politexnika instituti, Andijon davlat universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida amalga oshirib kelinmoqda.

Yevropa komissiyasi tomonidan moliyalashtirilayotgan ushbu loyiha yakunida akkreditatsiyadan o'tgan 3 ta oliy ta'lim muassasasida quyosh energiyasi tizimlari bo'yicha bakalavriat yo'nalishi tashkil etiladi. Natijada quyosh energiyasi tizimlari va komponentlarini o'rnatish, boshqarish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash maqsadida davlatimizning “yashil” iqtisodiyotga o'tish sur'atini oshirishga ulkan hissa qo'shadi.

### ISSIQXONA GAZINI KAMAYTIRISH VA TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari orasida “yashil” transport katta ahamiyat kasb etadi. Chunki transport tizimi atrof-muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi, oqibatda inson salomatligiga katta xavf tug'dirishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSS) ta'limotiga ko'ra, havo ifloslanishi har yili 7 milliongacha insonning erda o'limiga sabab bo'ladi. Jahon energiyasi iste'moli va issiqxona gazining 20-25 foizi bevosita transportlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda ham avtotransport atrof-muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahri atmosferaga avtotransportlar chiqarayotgan zararli tashlamalar borasida yetakchi bo'lib turibdi.

Shu kabi muammolar barqaror transport tamoyillarini joriy etishni dolzarb vazifaga aylantirdi. Yurtimizda barqaror transport tizimini rivojlantirish maqsadida qator amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali bilan birgalikda Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida “Sphere” loyihasini boshladi. Ushbu loyihaga asosan, barqaror transport tizimlari yo'nalishida ta'lim va tadqiqotni rivojlantirishga qaratilgan. Uning doirasida O'zbekistonda ishlovchi etayotgan oliy ta'lim muassasalarida barqaror transport tizimlari bakalavriat ta'lim yo'nalishini tashkil etish rejalashtirilgan. Innovatsion va yangi texnologiyalardan foydalanilgan



kompleks o'quv dasturlari ishlab chiqish orqali Yevropa Ittifoqining ilg'or tajribalarini O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga joriy etish belgilangan. 2024-2027-yillarga rejalashtirilgan loyiha doirasida 2024-yil martida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida dastlabki uchrashuv bo'lib o'tdi. Sloveniya, Gretsiya va Ispaniyada o'tkazilgan trening va yig'ilishlar doirasida barqaror transport sohasida yangi bilim hamda tajribalar o'rganildi. Muhimi, tahlillar natijasida 70 dan ortiq yangi fan dasturi ishlab chiqila boshladi.

Inson faoliyatining barcha turi biomuhitning o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu o'zgarishlarning yo'nalishi va miqyosini “ekologik inqiroz” sifatida baholash mumkin. Mana shunday salbiy ta'sirni kamaytirish uchun ham “yashil” iqtisodiyotga o'tish nihoyatda zarur.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti tomonidan “Foydalanishdan chiqarilgan “Mercedes-Bens Konekto” rusumli dizel avtobuslarni elektrifikatsiya qilish orqali elektrobust prototipini yaratish” amaliy loyihasi yo'lga qo'yilgan. Loyiha Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilgan.

Loyiha iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydigan ilmiy hamda texnologik zaxiralarni shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Hozir neft mahsulotlari zaxirasi kamayishi narx oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, shahar transport tizimida yo'lovchilarni tashish tannaxsi qimmatlashishiga ham olib keladi. Shahar transport tizimida harakatlanuvchi avtobuslarni elektrlashtirish bir qancha muammolar yechimini beradi. Avvalo, neft mahsulotlariga talab kamayadi. Shuningdek, atmosferaga chiqindi gaz tashlanishining oldi olinib, shahar ekologiyasi yaxshilanadi.

Yana bir ahamiyatli jihati, uzoq yillar yurtimizga import qilingan “Mercedes-Bens Konekto” rusumli avtobuslar dizel dvigateli bilan jihozlangan va hozir ular o'z vazifasini o'tab bo'lgan. Lekin avtobusning boshqa qismlari, shassis yaroqli holatda. Loyiha doirasida zavod viloyatimizdagi tomorqachilarga o'rtalangan elektr dvigatellarga almashirish orqali avtobuslarning ishlash muddati oshiriladi. Bu esa resurslardan yanada samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish demakdir. Aynan mana shular “yashil” iqtisodiyotning muhim talablaridan. Loyiha shaharlardagi ekologik vaziyatni yaxshilash va yo'lovchilarga qulaylikni oshirish imkonini beruvchi ekologik toza hamda samarali transport vositasi yaratishga xizmat qiladi.

### EKOLOGIK TOZA MAHSULOTLARNING BOZORI CHAQQON

An'anaviy avtomobillar benzin va gaz kabi yonilg'i bilan ishlaydi. Bu global isish va ekologik muammolarga olib keladi. Ekombillar esa energiya tejash bilan birga chiqindi gaz hajmini sezilarli darajada kamaytiradigan innovatsion yechimdir. Ma'lumotlarga ko'ra, jahondagi ekologik toza uskunalar bozori har yili o'rta 30 foiz, jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hisssasi 6-7 foiz ortayotgan kuzatilmoqda.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti “Ecomobile Group” kompaniyasi bilan hamkorlikda ushbu global tendensiyalarga to'liq mos keluvchi, “yashil” energiyadan foydalangan holda ekologik toza transport vositalarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ekombil loyihasini amalga oshirmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad nafaqat avtomobillar atmosferaga chiqaradigan zararli gazni kamaytirish, balki energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Loyiha doirasida 2026-yilda yiliga 100 ming dona ekologik toza energiya manbalari foydalanuvchi samarador va tejamkor elektromobil ishlab chiqarish quvvatiga ega zavod ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, elektromobillar uchun maxsus quvvatlash va akkumulyator almashirish stansiyalari tashkil etiladi. Bu stansiyalar mazkur turdagi energiya tejamkor transport vositalarini bir necha daqiqada to'liq quvvatlash imkonini beradi.

Loyihaning yana bir muhim yo'nalishi — O'zbekistonda elektromobillarni montaj qilish sexlarini ochish va ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishdir. Bu iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirib, yangi ish o'rinlarini yaratishda ham muhim.

Ekombil loyihasi O'zbekistondagi

“yashil” iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi muhim tashabbusdir. Elektr transport vositalarini joriy qilish va keng miqyosda ishlab chiqarish orqali mamlakatimiz energiya resurslarini tejash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga sezilarli hissa qo'shish mumkin. Ushbu loyiha nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqaga uchun barqaror transport yechimlarini taqdim etadi.

Insoniyatning iqtisodiy faoliyati tabiatga ta'sir etib, ko'plab ekologik muammolarga olib keladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa “yashil” iqtisodiyotga o'tish zarur. Mazkur iqtisodiyot modeli tabiat bilan hamohanglikni saqlagan holda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh energiyasidan foydalanish, suv va yer resurslarini oqilona boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash hamda ekologik transport tizimlarini joriy etish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekistondagi “DEBSEUz” va “Sphere” kabi loyihalar quyosh energiyasi va barqaror transport tizimlarini rivojlantirish orqali yangi imkoniyatlar ochilgan. Bu tashabbuslar tufayli elektromobillar va elektrlashtirilgan avtobuslar kabi ekologik toza texnologiyalar keng joriy etiladi.

Tabiat bilan hamohang iqtisodiy faoliyat tabiatning saqlanishini ta'minlaydi. Mana shu ta'minot sababli ham “yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayoni bugun eng muhim ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ilg'or tashabbus sifatida qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu sa'y-harakatlar esa, albatta, natijasini beradi.



### Bog' jamoli — bog'bondan

2024-yil men uchun juda omadli keldi. Avvalo, Prezidentimiz o'tgan yilning aprel oyida Jizzax viloyatiga tashrifi chog'ida xonadonimizda mehmon bo'ldi. Tomorqamizni ko'zdan kechirdi, faoliyatimiz, oilamiz, kelajakdagi rejalarimiz, yurtimizdagi islohotlar haqida samimiy gaplashdik. Tomorqadan qanday foydalanayotganimni, qancha daromad olayotganimni, tomorqachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflarimni, bu borada qanday muammolar borligini so'radi. Men tajribamdan kelib chiqib bilganlarimni, takliflarimni, 12 sotix tomorqadan bir yilda to'rt martagacha hosil olib, qariyb 200 million so'mgacha daromad topayotganimni aytdim. Prezidentimiz xursand bo'lib: “Sizdek insonlar tajribasini ommalashtirish kerak, aholimiz ixtiyorida tomorqalar ko'p, qani endi hamma sizdek tomorqasidan shunday daromad topsa. Sizing misolingizda ko'ryapmizki, odamning o'zida ozgina harakat bo'lsa, albatta, yaxshigina daromad topsa bo'ladi”, dedi.



## ODAMNING O'ZIDA OZGINA HARAKAT BO'LSA BAS

Davlatimiz rahbari tomorqachilikka buncha e'tibor qaratayotgani, tomorqachilik bo'yicha fikrlari, ayniqsa, “Tomorqa — tayyor ishchi joy, tayyor daromad”, degan so'zlarini o'zimcha tafakkur qildim. Xulosam shu bo'ladi, darhaqiqat, birgina tomorqachilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirish, turmush darajasini yuksaltirish, kambag'allikni qisqartirish, bozorlarni dasturxonimizni to'kin va farovon qilish mumkin.

Axir mamlakatimiz aholisining asosiy qismi qishloq joylarda yashaydi. Ularning ko'pchiligida tomorqa bor. Agar undan to'g'ri, samarali foydalanilsa, doimiy daromad manbaiga aylanadi. Oila a'zolari foydali mehnat bilan band bo'ladi. Chet elga ish izlab chiqishga hojat qolmaydi.

Ammo ko'pchilik turli bahonalarni vaj qilib,

tomorqasidan unumli foydalana olmayapti. To'g'ri, hozir “mahalla yetiligi” tomonidan aholi tomorqasidan unumli foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda, imtiyozli kreditlar berilmoqda. Mahallalarda “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida ishlanyapti. Afsuski, hali bu ishlar to'liq samarasini bermayapti.

Bu borada shaxsiy namuna bo'lib, uch-to'rt yildan beri faqat viloyatimizdagi tomorqachilarga tajribamni o'rgatib kelayotgan bo'lsam, Prezidentimiz tashrifidan so'ng bir marta uyimda respublika miqyosidagi seminar o'tkazildi. Bundan tashqari, ko'plab viloyatlardan sohaga qiziqqanlar kelib, tajribamni o'rganib ketyapti.

Yuqorida qayd etganidek, joriy yil men uchun xursandchiliklarga boy bo'ldi. Tashrifdan so'ng tomorqa xo'jaligimizni yanada rivojlantirdik, daromadimiz barakali bo'lganini angladim.

Eng muhim va esda qoladigan voqealardan yana biri — Prezidentimiz farmoniga ko'ra, tadbirkorlar kuni arafasida “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Davlatimiz rahbari respublikamizning old tadbirkorlari qatorida oddiy bir tomorqachini mukofotlaganidan juda xursand bo'ldim.

Albatta, davlat mukofotining o'ziga yarasha mas'uliyati bor. Oldimga yangi maqsadlar qo'ydim. Kelajakda fermer bo'lish, mevasabzavotlarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etmoqchiman. Asosiy maqsadim esa bor tajribamni ommalashtirib, tomorqachilikni rivojlantirib, aholini daromadli qilish, yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shish.

Abdum'in KARIMOV,  
Sharof Rashidov tumanidagi  
shaxsiy tomorqa yer egasi

## Ta'lim odimlari

2024-yil 20-noyabr kuni davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yig'ilishida xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag'i hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog'cha barpo etilishini ta'kidladi. Shuningdek, 174 ta bog'cha va 379 ta maktab ta'mirlanadi va yangidan quriladi. Bu maqsad uchun byudjetdan 4 trillion so'm ajratiladi.



Risolat MADIYEVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Boshlanishi 1-betda

O'tgan davrda maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lami ishlar bajarildi. Bolalar bog'chalari soni 8 barobar oshib, salkam 38 mingtaga, jumladan, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari 250 tadan 29 mingtaga, qamrov esa 27 foizdan 76,4 foizga yetdi. Maktabgacha ta'lim tizimini dunyodagi ilg'or tajriba asosida mutlaqo yangicha rivojlantirish borasidagi ezuq tadbirlar bugun ham davom etmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlarga to'liq qamrab olish vazifasi belgilangan.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2024-yil 20-noyabrdagi yig'ilishida ta'lim sifatini yanada oshirish, yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash masalalariga e'tibor qaratib, kelgusi yillarda bog'chalardagi qamrovni 80 foizga yetkazish hukumat uchun asosiy vazifa bo'lib qolishini ta'kidladi.

## BOLANING BOG'CHAGA BORISHI NIMA UCHUN MUHIM?

Har bir bolada — bir daho yashirin. Uning kim bo'lib voyaga yetishi esa ilk yoshlarida olgan tarbiyasiga bog'liq.

"Erta rivojlantirishdan asosiy maqsad baxtli bolalarni tarbiyalashdir. Bolaga yaxshi musiqa tinglash, xorijiy tillarni o'rganish imkoniyati uni tilshunos yoki musiqachi etib tarbiyalash maqsadida berilmaydi. Asosiy, bola hayotidagi xursandchiliklar yanada ko'proq bo'lishi uchun uning cheksiz imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat", deb yozadi taniqli yapon olimi Masaru Ibusa "Uchdan keyin kech" kitobida.

Maktabgacha yoshda xotira, idrok, fikrlash, nutq rivojlanishi juda muhim. Bu davrda bolaning dunyo tuzilishi haqidagi bilimi muttasil yangilanadi, so'z boyligi oshadi, muayyan ko'nikmaga ega bo'ladi.

Bola bog'chaga borganida yangicha ijtimoiy munosabatlar bilan tanishadi. Tengqurlari bilan muloqot qiladi. Shu orqali unda kirishuvchanlik xususiyati shakllanadi. Maktabga borganida bu ko'nikma o'qituvchini tushunishga ko'maklashadi. U intizom, xulq-atvor me'yorlari, qoidalarga rioya etish, xatti-harakatlarini

tayyorlash uchun "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqilgan. Bu bog'chaga bormagan, "Ilk qadam" dasturida ta'lim olmagani bolaga bir yil davomida dastur asosida maktabga tayyorlanish imkonini bermogda, — deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori o'rinbosari Lola Berdiyeva.

Bugun mamlakat bo'yicha 6 yoshli bolalarning 96 foizi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov, qisqa muddatli hamda majburiy bir yillik guruhlarga qamrab olingan.

Bolalik — inson hayotining eng musaffo pallasi. Hayrat to'la nigoh, samimiyatga to'la kichik qalbg muhrangan ilk tasavvur, atrof-olamni bilish va o'rganish jarayoni keyinchalik borliqni mukammalroq tushunishga yordam beradi. Ana shu maqsadda tashkil etilayotgan



## CHEKSIZ IMKONIYATLAR RO'YOBI

## HAR TOMONLAMA YETUK AVLODNI TARBİYALASH – ZAMON TALABI

nazorat qilish va rejalashtirishni o'rganadi. O'z o'rinda uni o'rab turgan borliq, odam va olam haqidagi bilim va tasavvuri boyib boradi. Aynan shu pallada rivojlangan xususiyatlar bolaning kelajagiga tamal toshi vazifasini o'taydi. Kelgusida kim bo'lib yetishishi, atrof-olamga munosabati, dunyoqarashi, yurt koriga daxldorlik hissi asta-sekin kamol topadi. Yaratuvchanlik kayfiyati, intellektual salohiyati shakllanadi.

## BUGUN TUSHUNCHALAR O'ZGARDI: HAMMA OTA-ONA FARZANDINI BOG'CHAGA BERISH TARAFDORI

Ilgari ko'p mahallada bolalarni bog'chaga qamrab olish sust kechgan. Ayrim holatlarda esa zarurat bo'lmasa, ota-ona farzandini bog'chaga bermagan. Murabbiylar uy-may uy yurib, ota-onalarga bolani bog'chaga berishning ahamiyatini tushuntirgan holatlarga guvoh bo'lganmiz. Ehtiyoj bo'lsa-da, MTT yetishmasligi tufayli bolalar uyda qolib, maktab yoshigacha zarur bilim va ko'nikmalarni egallay olmagani. 1-sinfga chiqqanda bog'chaga borgan va bormagan bolalar o'rtasida sezilarli farq ko'zga tashlangan. Bu nafaqat bolalarga, o'qituvchilarga ham qiyinchilik tug'dir edi.

— Ayni paytda maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 6 yoshli bolalarga ham teng imkoniyat yaratish maqsadida bir yillik bepul 7601 ta majburiy maktabga tayyorlov guruhi tashkil etildi. Ularda 182 mingdan ortiq 6 yoshli o'g'il-qiz boshlang'ich ta'limga tayyorlanmoqda. Olti yoshli bolalarni maktab ta'limiga sifatli



mashg'ulotlar bolalarni maktabga, o'quv jarayoniga tizimli tayyorlab bormogda.

Prezidentimiz raisligida 2024-yil 13-dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va kelgusi vazifalar muhokamasi

uzasidan o'tkazilgan yig'ilishda yaxshi tajriba sifatida Toyloq va Kosonsoy tumanlarida ochilgan "Ilk rivojlanish markazlari" faoliyati tilga olindi. Markazlarda kambag'al oiladagi va nogironligi bo'lgan 4200 bolaga bog'cha ta'limi berilgan. Viloyat hokimlariga bu tajribani o'rganib, har bir tumanda joriy etish topshirildi.

— Jahon banki bilan hamkorlikda "Bolani erta rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi doirasida Namangan va Samarqand viloyatlarida 3 ta model bo'yicha "Ilk rivojlanish markazlari" faoliyati yo'lga qo'yildi, — deydi Lola Berdiyeva. — Birinchi model bo'yicha oilalarga beriladi. U yerda bolalar bilan ishlash, ota-onalarning faol ishtirokida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq tashkil etiladi. Bu boshlang'ich ta'limga kirish imkonini oshirmogda. Bu modelda kam ta'minlangan oilalarning 6 yoshgacha bo'lgan 764 farzandi ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etilgan.

Ikkinchi model o'yin guruhlari faoliyatiga asoslanadi. Bu guruhlarda 3-7 yoshli bolalar uchun "Ilk rivojlanish markazi"da ochildi. Ta'lim-tarbiya jarayoni "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirib kelinmoqda. Bu jarayonda ota-onalar ham ixtiyoriy ishtirok etishi mumkin. Turli yoshli bolalardan iborat o'yin guruhlardagi bolalar 15 dan 20 nafargacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruhlarga 1032 o'g'il-qiz qamrab olingan.

Uchinchi model bo'yicha 3-6 yoshgacha bolalari bo'lgan, alohida ta'limga ehtiyojmand

oilalarga borilib, ularga maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatiladi. Hozir ushbu model bo'yicha 87 bola qamrab olingan. Ta'lim-tarbiya jarayoni defektolog, psixolog, tarbiyachilar ishtirokida bolalarning uyida o'tilmoqda.

— Bu loyiha asosida salmoqli ishlar bajarilayapti, — deydi Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi "Ilk rivojlanish markazi" koordinatori Zarina Zohidova. — Asosan, maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalarni jalb etish nazarda tutilgan. Tog'li va chekka, uzoq hududlarda MTT faoliyatini yo'lga qo'yish oson emas. Ba'zan bola soni yetishmasligi, gohida esa aholi tarqoq joylashgani sabab bo'lishi mumkin. Loyihani esa istalgan hududda amalga oshirsa bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni mutlaqo bepul va bu jarayonga ota-onalar ham faol jalb etilgan. Biz loyihani amalga oshirish jarayonida oilalarning ijtimoiy holatini ham o'rganдик.

Bu loyiha orqali bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash barobarida uning yoshi, individual imkoniyatlari, qobiliyati va ehtiyojlariga mos ravishda jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishi ta'minlanmoqda.

Alohida ta'limga ehtiyojmand bolalarga individual o'quv dasturlari, zamonaviy inklyuziv maktabgacha ta'lim-tarbiya olish imkonini beruvchi qulay muhit yaratilgan. Bu esa o'g'il-qizlarga oilaga, vatanga muhabbat, xalqning milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, atrof-muhitga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi.

Qolaversa, loyiha orqali bolaning ijtimoiy moslashuvi va boshlang'ich ta'limga tayyorligi ta'minlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida kichikintoylarga va ota-onalarga har tomonlama yordam berilmogda.

— Nogironligi bor oilalarga borganimizda stressli holatlarga ko'p duch kelganmiz, — deydi Zarina Zohidova. — Moddiy-ma'naviy horg'inlik ota-onaning butun qiyofasida sezilib turadi. "Keling, bolangizni birga o'qitamiz, uning o'ziga xos qobiliyati bor, iqtidorini rivojlantiramiz", deya ularga ruhan dalda beramiz. Pedagoglar bola bilan ishlash, qanday yondashish zarurligini ota-onalarga o'rgatmoqda. Sa'y-harakatlarimiz besamar ketmaypti. Maktabga chiqqan bolalarning yutuqlarini ko'rib quvonmaymiz. Ko'p bolalar sog'lom tengdoshi qatori umumiy o'rta ta'lim maktabiga bormogda. Bu ham bizning yutug'imiz. O'z qobig'iga o'rilib, uyda qolib ketgan bolalar bugun o'qish, sportda tengdoshlariga o'rnak bo'laypti. Mental arifmetika, gimnastika bo'yicha chempionlarimiz bor. Ota-onalarning bolalariga bildirayotgan ishonchi, qo'llab-quvvatlovi ham bu jarayonda muhim o'rinni tutaypti. Bu loyihaning ahamiyati nafaqat ta'lim-tarbiya, balki insoniylik, ijtimoiylik nuqtayi nazaridan ham katta.

Mashg'ulotlar bola salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim olish va harakatlanishga ehtiyojini ta'minlaydi, ijodiy qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

## "KO'CHMA BOG'CHA" — AQLLI BOG'CHA

O'tgan yillarda yurtimizning ko'plab hududiga ta'lim-tarbiya uchun barcha shart-sharoitga ega avtobuslar "ko'chma bog'cha" shaklida qayta jihozlangan holda yetkazib berildi. Maktabgacha ta'lim tizimi bilan barcha bolalarni qamrab olish hamda teng sharoit yaratish maqsadida "Aqlvoy" — maktabgacha ta'lim mobil guruhlari shakllantirilgan. Maktabgacha ta'limning ushbu muqobil innovatsion shakli o'quv-tarbiya xizmatlari sifatini va samaradorligini oshirish imkonini berdi.

— Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish mumkin bo'lmagan o'lim va chekka hududlardagi 156 ta mahallada 72 ta avtobus negizida mobil guruhlarni faoliyati yo'lga qo'yildi, — deydi Lola Berdiyeva. — Bu guruhlarga 9500 ga yaqin 3-6 yoshli bola qamrab olindi. Avtobuslarda tashkil etilgan mobil guruhlarda "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim-tarbiya berilmogda. Didaktik adabiyotlar, film va ko'rsatuvlar jozibali, kichikintoylarga ma'naviy ozuqa beradigan shaklda tayyorlangan. Maqsad — har bir bolaga maktabgacha ta'lim olish imkonini yaratish.

Bolalarning bog'chada sifatli ta'lim-tarbiya olishi faqat sharoit va mashg'ulotlar bilan bog'liq emas. Bunda malakali pedagoglarning o'limi muhim. Sohaga tajribali mutaxassis va boshqaruv kadrlarini jalb qilish natijasida shu kunga qadar 300 mingga yaqin ishsiz ayolning bandligi ta'minlandi.

## YANGI AVLOD — YANGI KUCH

2024-yil 20-noyabr kuni davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yig'ilishida xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag'i hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog'cha barpo etilishini ta'kidladi. Shuningdek, 174 ta bog'cha va 379 ta maktab ta'mirlanadi va yangidan quriladi. Bu maqsad uchun byudjetdan 4 trillion so'm ajratiladi.

O'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalari joriy etilayotir. Yangi bog'chalar qurilyapti, mavjudlari ta'mirlanib, barcha sharoitlar muhayyo etilmogda. Maqsad bita — farzandlarimizni bilimli, salohiyatli, jismonan va ruhan yetuk qilib tarbiyalash. Bu chora-tadbirlar bir kun samarasini beradi. Bugun bog'chalarda ta'lim olatyotgan zukko, aqlli, bilimli, iqtidorli o'g'il-qizlar kun kelib, davlatimizni taraqqiy ettirish uchun jamiyatimizga yangicha kuch bo'lib qo'shiladi.

## Boqiy meros



## Boshlanishi 1-betda

Maqolamizda bu sport turining kelib chiqishi, yaralish tarixi haqida to'xtalmoqchimiz. Qadimgi manbalarga ko'ra, miloddan avvalgi ikki minginchi

yillikda dasht va cho'l mintaqasida yashovchi chorvador aholi orasida mulkiy tabaqalanish jarayoni kuchayib borgan. Jumladan, bugungi davlatimiz hududida yashagan qabilalar o'troq dehqonchilikka o'tib, hunarmandlik sohalari rivojlanib, shaharsozlik madaniyati shakllana

## KURASHLARDA TOBLANIB YOXUD MOZIY BAG'RIDAGI QADRIYAT

boshlagan. Alal-oqibat davlatchilikning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o'zanlariga zamin yaratilgan.

Davlatchilikning ilk belgilari shakllana boshlash bilan birga, yer, suv va boshqa maqsadlar sabab tashqi dushman ta'siri hamda ichki nizolar ham ortib borgan. Bunday murakkab vaziyatda maydonga ona vatan taqdirini zimmasiga olgan yigitlar chiqadi. Birgina misol, sak-massaget qabilalari sardori To'maris va oddiy cho'pon Shiroqning Ahamoniyarlarga qarshi kurashini ko'z oldingizga keltiring. Yoki So'g'd o'g'loni Spitamenning yengilmas Iskandarga munosib qarshilik ko'rsatgani o'sha davr ijtimoiy, siyosiy hayotida harbiy jangovarlik ruhi rivojlanganidan darak beradi. Aynan shu davrda ibtidoiy jamoa tizimi yemirilib, harbiy demokratik qoidalar hukmronlik qila boshlagan edi. Bu esa o'z o'rinda, vatan ozodligi uchun kurashuvchan shaxslar yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Asta-sekin xalq og'zaki ijodida milliy qahramonlar shaxsiyati, jasurligi va boshqa fazilatlar haqida kuylanib, xalq oldidagi xizmatini aks ettiruvchi rivoyatlar paydo bo'la boshladi.

Albatta, milliy qahramonlar shakllanishida ularning harbiy salohiyatini o'stiruvchi o'yin turlarining o'rni katta. O'zaro urushlar, ichki nizolar o'sha davrdagi har bir er yigit mohir chavandoz, meron, yana chaptad kurashchi bo'lib shakllanishini taqozo etardi.

Arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar kurash azaldan ota-bobolarimiz turmush tarzining ajralmas qismi bo'lganini tasdiqlaydi. Xususan, qadimgi Baqriya davriga taalluqli idishlarda milliy kurash tasvirlari borligi aniqlangan. O'sha davrga tegishli sopol idishda ikki polvonning kurashayotgani, biringin oyoqdan chil solayotgani aks etgan tasvir mavjud. Idishlarga ishlangan kurash manzarasi bronza davriga oid bo'lib, bu esa bugungi o'zbek milliy kurashi ildizlari 3,5 ming yillik tarixga ega ekanidan darak beradi.

Topilmaning o'ziyoq bugun jahon maydonida katta nufuzga ega bo'lib borayotgan bu sport turining tarixiy ildizi naqadar chuqurligini ko'rsatadi. Yana bir topilma otning bronzadan ishlangan ikkita taqasi bo'lib, ularda ikkita bir xil holat aks ettirilgan. Tarixchi olimlarning yozishicha,

ular ishlanish uslubiga ko'ra, ko'chmanchilik davrining dastlabki bosqichlariga, ya'ni 2,5 ming yillik tarixga oid bo'lib, sak-skiq qabilalarining ma'naviy qarashlari ruhida ishlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu taqalarda ham o'zbek kurashining farg'onacha usuli tasvirlangan. Taqalarning biri jimjimador bo'lsa, ikkinchisi bo'rtma uslubda ishlangan. Bundan xulosa qilish mumkin, taqalar turli vaqtlarda, turli ustalar tomonidan yaratilgan. Ularda tasvirlangan pahlavon sipohiyar egnida uzun chalvor, oyoqlariga charmdan to'qilgan poshnasiz choriq, bellariga tasma bog'langan. Otlari esa daraxtga bog'lab qo'yilgan.

Bir qaraganda, taqalarda egerlangan otlamning polvonlar orida turishida ham muayyan ma'no mujassam. Ot suvoriyning barcha sarguzashtlarida hamroh. Qadimgi eposlarda ot bilan uning egasi — pahlavonning bir kunda dunyoga kelganini anglatadigan satrlar uchraydi. Azaldan ot va inson o'rtasida qandaydir yaqinlik bor. Qadimgi ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida otidan unumli foydalangan. Bejiz turkiy xalqlarda bolani kichikligidan ot minishga o'rgatishmagan. Ot ustida o'tirgan kishining ruhiyati ko'tariladi.

Uni boshqarish jarayonida yosh bolaning abjirligi va jasurligi ortib, hushyorroq bo'ladi. Ot minish odamni chiniktiradi.

Navbatdagi topilma milodiy birinchi mingyillikning o'rtalariga oid kumush cho'mich bo'lib, uning gardishi sirtida ikki pahlavonning olishayotgani tasvirlangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar bu sport turining moziy bag'ridagi ildizi juda chuqurligidan darak beradi. Bugungi kunda ham kurashning ahamiyati aslo kamaygani yo'q. Boisi, ayni g'ala-g'ovur zamonda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi xalq pedagogikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Yosh avlodni qadriyatlar ruhida tarbiyalashda turli vositalar va usullardan keng foydalanish ijobiy natija beradi. Bunday vositalar va usullar sirasiga milliy sportimiz bo'lgan kurashni kiritish mumkin.

Bugungi kunda yoshlar orasida salbiy illatlar — kashandalik, ichkilikbozlik kabilar ta'siriga tushib qolish holatlari uchray turibdi. Buning kelib chiqish sabablari esa yoshlarning milliy sportimiz bo'lgan kurashni kiritish kichikligidan ot minishga o'rgatishmagan. Ot ustida o'tirgan kishining ruhiyati ko'tariladi.

Kurash bilan shug'ullanish esa yoshlarda tantilik, mardlik, o'z imkoniyatlarini baholash, rahm-shafqat, izzat va hurmat, qo'rquvni yengish, halollik kabi fazilatlarni shakllanishida muhim o'rinni tutadi. Zero, sog'lom muhit har qanday tashqi ta'sirlarga qarshi kurashning asosiy kuchidir.

Sardor TOLLIBOYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga

# TURKISTON JADIDLIK HARAKATI OTASI




“

Behbudiy (ma'nosi — yaxshilik, sog'lomlik, foyda, najot) jamiyatni hur, ozod, farovon, millatni bilimli, ziyoli ko'rishni orzu qilgan edi. Bugungi yangilanish jarayonlarida jadidlarning ma'rifatga yo'g'rilgan g'oyalari har qachongidan ham dolzarb. Shu ma'noda, uning merosi, sinovlar, turli murakkabliklar, mushkulotlarga to'la hayoti va faoliyatida tadqiq etiladigan epizodlar talaygina, deyishga asoslarimiz bor.



mutaxassislar bu mavzuga, ayniqsa, jadidlarning siyosiy faoliyatiga bir oz e'tibor qarata boshladi, — deydi tarix fanlari doktori Ravshan Abdullayev. — O'zbekiston davlat arxivlarida izlanish olib borayotgan yetakchi olimlar jadidlik harakati yetakchilaridan biri bo'lgan Behbudiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq ko'plab hujjati o'rganmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida uning hayoti va siyosiy faoliyatiga oid yangi ma'lumotlar birin-ketin yuzaga chiqmoqda.

Tadqiqotchining aytishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy zamondoshlari orasida kuchli ilmi bilan ajralib turgan, bir nechta tilni bilgan. U juda yoshligidan dunyo keza boshlagan va qator mamlakatlarda, jumladan, Misr, Shom, Jazoir, Turkiya va Rossiyaning bir nechta shahrida bo'lib, Yevropa madaniyatiga ham



otasi" deb e'tirof etilgan alloma bor-yo'gi 44 yil umr ko'rgan. Shu qisqa muddatning katta qismi tazyiq va tahdidlar ostida kechishiga qaramay, xayrli ishlarni bajarishga ulgurd, kelajak avlod taqdiri haqida qayg'urdi. Bugun ham uning g'oyalari dolzarbligini yo'qotmagan. Turkiston jadidlari rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasi bayroqdori, yangi maktabchilik nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasi asoschisi, noshir, jurnalist o'zining safdoshlari, g'oyadoshlari bilan "usuli jadid", "usuli savtiya" nomi bilan shuhrat topgan yangi maktablarni tashkil qilib, ulardagi o'qitish tizimini isloh qildi. Xususiy maktablar ochib, bolalarga diniy fanlar bilan birga aniq va tabiiy fanlarni o'qitdi, she'r va maqolalar hamda sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga xizmat qildi.

"Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq kerak. Millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan oqib bo'lmoq lozim. Millat uchun oyna kerak, toki undan o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin", degan edi mutafakkir ma'ruzalardan birida. Ayni mana shu zarurat Behbudiyning teatr va matbuotga e'tibor qarashiga undadi.

Alloma jamiyat hayotidagi illatlar, nuqsonlar va ilmsizlikni sahnada ko'rsatish orqali xalqni taraqqiyparvarlikka da'vat etish maqsadida 1914-yil milliy teatrda asos soladi. Uning "Padarkush" dramasi katta shov-shungva sabab bo'ladi. Ilmsizlik fojia ekanini aks ettirgan asarda u yoshlarning bilim egasi, madaniyatli bo'lishi lozimligiga urg'u beradi. 1911-yilda yozilgan dramasi dastlab 1912-yilda "Turon" gazetasida

bosilgan, so'ng kitob holda chop etilgan. Shundan so'ng tez muddatda Samarqand, Buxoro va Toshkentdagi teatr sahnalarida namoyish etilgan. U kompozitsion qurilishiga ko'ra oddiy bo'lsa-da, mazmun-g'oya jihatdan ancha qamrovlidir. Xususan, undagi qahramonlar ikki qutbda ikki xil harakat bilan yashaydi. Bir tomonda boy, o'g'li va uning gumashtalari bo'lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlari asar g'oyasini ochishda muhim o'rin egallaydi.

O'zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatrta poydevor qo'ygan bu asar o'z davrida Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasi, Mirmuhsin Fikriyning "Befarzand Ochildiboy", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yangi saodat", "Zaharli hayot", Avloniyning "Advokatlik osonmi?", "Pinak", Badriyning "Juvonmarg", "Ahmoq", Hoji Muinning "Eski maktab — yangi maktab" singari pyesa va qissalari yozilishiga turki bergan.

Behbudiy milliy matbuotimiz tarixida ham o'z mavqega ega. Uning hozirgacha aniqlangan maqolalari 300 taga yetadi. Bu asarlarning yosh avlod intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, shu asosda o'g'li-qizlarni yangi O'zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvarlar etib tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyati cheksiz. Zero, u qat oldidan keyingi avlodga yozgan vasiyatnomasida bunday so'zlarni bitgan: "Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yo'lida ishlay turg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo'qlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Mumkin qadar ko'proq yangi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo'ladi!".

XX asr o'zbek adabiyoti va san'atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma'rifati, ozodligi, hurligi yo'lida mardonavor kurashgan bu ulug' allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o'rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo'lib qoldi.

**Nodir MAHMUDOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Boshlanishi 1-betda

Bu kabi xayrli ishlar keyingi yillarda ham jadal davom etdi. Iste'dodli dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi mukofot ta'sis qilindi shu yo'ldagi yangi amaliy qadam bo'ldi. Millatni buyuk maqsadlar yo'lida birlashishga undagan mutafakkir bobomizning faqat yubileyi emas, 146, 147, 148 va 149 yillik sanasi ham mamlakat miqyosida keng nishonlandi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori esa buyuk allomaning hayot yo'lini o'rganishda yangi ufqni ochishga xizmat qiladi.

Qarorga ko'ra, Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatini chuqur o'rganish va targ'ib qilish, alloma tavalludining 150 yilligini munosib nishonlash maqsadida tashkiliy qo'mita tuziladigan va qo'mita tomonidan ikki haftada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanadigan bo'ldi. Dasturdan mutafakkir adibning "Tanlangan asarlar" to'plami, uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish, Mahmudxo'ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish hamda bugunga qadar yaratilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" kinoseriali va "Xalq yuragi" badiiy-publististik filmlarining ommaviy namoyishini tashkil qilish kabi vazifalar joy oladi.

Shuningdek, "Mahmudxo'ja Behbudiy saboqlari" mavzusida insholar tanlovi o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash, 2025-yil oktabrida "Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakati o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish, 2025-yil noyabrda tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-ma'rifiy xotira kechasini o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaraladi.

Behbudiy (ma'nosi — yaxshilik, sog'lomlik, foyda, najot) jamiyatni hur, ozod, farovon, millatni bilimli, ziyoli ko'rishni orzu qilgan edi. Bugungi yangilanish jarayonlarida jadidlarning ma'rifatga yo'g'rilgan g'oyalari har qachongidan ham dolzarb. Shu ma'noda, uning merosi, sinovlar, turli murakkabliklar, mushkulotlarga to'la hayoti va faoliyatida tadqiq etiladigan epizodlar talaygina, deyishga asoslarimiz bor.

U 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganlik bo'lib, amir Shohmurod zamoni (1780-1785-yillar)da Samarqandga kelib qolgan.

Oiladagi muhit undagi ma'rifat va adabiyotga qiziqishning tezroq ro'yobga chiqishiga imkon tug'dirdi. Behbudiyning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar bitgan edi. Bu, o'z navbatida, Mahmudxo'jaga ta'sir o'tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so'zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan "Hidoya" ("Islom huquqiga sharhlar") asarining o'z hayotida katta ahamiyat kasb etganini alohida qayd etgan.

Behbudiy faoliyati va o'sha davr siyosiy hayoti tafsiloti sobiq ittifoq davrida yetarlicha o'rganilmagan. Sababi bu mavzu yopiq bo'lgan. Mustaqillik davriga kelib, tarixchilar,

qiziqadi. Qozon va Orenburgda chiqadigan arab ilmosidagi gazeta va jurnallar bilan hamkorlik qiladi. Behbudiy maqolalari mazkur nashrlarda chiqq boshlaydi. Maktab, maorif, madaniyat, ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'iboti ushbu maqolalar markazida turadi.

XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta'lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan Mahmudxo'ja Behbudiyning millatimiz va davlatimiz oldida xizmati beqiyos. O'z davridayoq "Turkiston jadidlik harakati

## Besh tashabbus samarasi

Yangi O'zbekistondagi islohotlarning ilk bosqichidayoq davlatimiz rahbari kitobxonlik va kitob o'qish madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Shundan so'ng kitobxonlik davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu Uchinchi Renessans poydevorini qo'yishga qaratilgan ilk amaliy ishlar bo'ldi.

Mazkur islohotlarning uzviy davomi sifatida Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi e'lon qilindi. Unga ko'ra, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida oilaviy kitob o'qish an'anasini yo'lga qo'yish maqsadida "Eng yaxshi kitobxon oila" respublika tanlovi o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tanlov yosh oilalarni atrofida birlashtirib, ma'naviy-intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, jamiyatimizda kitobxonlikni keng targ'ib qilishda katta maktab vazifasini o'tamoqda.

Har yili tanlovlarning yakuniy bosqichi Toshkent shahrida o'tkaziladi. 2024-yilda bu an'ana o'zgaradi. Tanlovning asosiy bosqichi Jizzax shahridagi muhtasham kiber arenada o'tkazildi. Shuning o'ziyoq kitobxonlik targ'ibotida yangi davr boshlanayotgani, mutolaaga katta e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Zero, tanlovning Jizzax shahrida o'tkazilgan final bosqichi viloyatda kitobxonlik bayramiga aylanib ketdi. Jizzaxlik yigit-qizlar



yurtimizning barcha hududlaridan kelgan eng zukko, topqir va muhimi, kitobxon oilalarning ishtirokini, kitoblar haqida hayajon va faxr bilan so'zlashini bevosita kuzatib bordi. Bu kitob o'qish haqidagi eng ta'sirchan so'zlardan ham samaraliroq usul deb o'ylayman. Bunday chora-tadbirlar yuksal ilmiy salohiyatga, keng dunyoqarashga ega hamda qalbidagi yurtga muhabbat jo'sh urib turgan yoshlar kamolotida juda muhim.

Behbudiy olimpiadasi" doirasida tashkil etilgan "Yosh kitobxon oila" tanlovi

yildan yilga takomillashib, kitobxon oilalar safi tobora kengaymoqda, — deydi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati mas'ul xodimi Mansur Boysariyev. — 2023-yili mazkur tanlovda ishtirok etish uchun 64 ming yosh oila xohish bildirgan bo'lsa, yangi mavsumda 94 mingga yaqin yosh oila ishtirok etish uchun onlayn ro'yxatdan o'tdi. Bu, albatta, juda quvonarli. Tanlovning saralash bosqichida ishtirokchilar 5 ta shart bo'yicha bellashib, har bir viloyatdan bir juft eng kitobxon oila final bosqichiga yo'llanma oldi. Unda ishtirokchilar

"badiiy asarlar bilimdoni", "insho" va "tezkor savol-javob" shartlari bo'yicha salohiyatini namoyon etdi.

## Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi

Yosh kitobxon juftliklar hayajonda. To'rt tarafi jadid yozuvchi va shoirlarning surati va ma'naviy yodgorliklari — nomma-nom ko'rsatilgan asarlar ro'yxati chiroyli husnixatda jilolanadi. Sahna esa daraxt soyasida kitob o'qib o'tirgan o'ta-ona va farzandlar aks etgan ramziy surat.

Ayniqsa, ekranda tanlovning final bosqichi ishtirokchilarining surati namoyon bo'lganda bir-biriga mehr-muhabbat bilan boqib turgan kelin-kuyovlar nigohida yoshlikning go'zal tarovati butun mahobati bilan gavdalanaadi. Ular oldida ekanlab suratga tushgan beg'ubor bolakaylarning shirin tabassumini tasvirlashga so'z o'z. Yangi O'zbekistonning asl qiyofasi mana shu baxtiyor oilalar chehrasida namoyondek...

Mamlakatimizning 14 hududidan kelgan



yosh oilalar agentlik tomonidan tavsiya etilgan 25 nomdagi badiiy adabiyot mutolaasi davomida kitobxonlik madaniyatini nechoq'liq egallaganini, qancha bilimga ega bo'lganini namoyon qildi. Bu tanlov oilalar mustahkamligiga xizmat qilish bilan birga farzand tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Tanlovning bosh g'oyasi — kitobxonlikning har bir uyga kirib borishi, badiiy asarlar mutolaasi yosh oilalardagi jipslikni mustahkamlab, oila a'zolari o'rtasida mehr-muhabbat, sabr-qanoat, o'zaro tushunish, hurmat, vafo va sadoqat tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil bo'ladi.

## E'tirof yuksak parvozga undaydi

Kitobxonlik bellashuvi — eng intellektual loyiha. Kitoblar onalar uchun farzand tarbiyasida asosiy yordamchi bo'ladi. Kitobxon onalar zukko farzandlarni tarbiyalaydi. Kitobxon bolalar kitobxon millat bo'lib shakllanadi, — deydi Surxondaryo viloyatidan kelgan ishtirokchi Muborak O'sarova. — Turmush

o'rtog'im bilan finalgacha yetib keldik. Bir o'g'il va bir qizimiz bor. Bizni ko'rib, 3 yoshli qizim ham qo'lga kitob olib, o'zicha o'qishga tutinadi. Qush uyusida ko'rganini qiladi deb shunga aytishga kerak-da. Bugungi tanlovda o'rin ololmagan bo'lsak-da, shodligimiz bir dunyo. Turli viloyatlardan kelgan yosh oilalar bilan tanishdik, do'stlashib ham oldik. O'rin olgan-olmaganidan qat'i nazar, 10 million pul mukofoti berilishi yosh oilalar uchun yaxshigina rag'bat bo'ldi. Mukofotga berilgan kitoblar esa chinakam xazinaning o'zginasini.

Biz tanlovning Jizzax viloyati nomidan qatnashgan vakillari — Sayfullayevlar oilasiga yuzlanamiz. Bu oila kitobxonlik borasidagi iqtidorini namoyon qilib, 2-o'rinni egalladi.

— Bu yil to'rt xonali uy qurgan edik. Devorini ko'tarib, tadori yo'pb ko'yganniz. Bugungi mukofotni yangi uyni yangicha, zamonaviy uslubda ta'mirlashga sarflamoqchimiz. Yozda uy to'yiga o'taverasizlar, — deydi juftliklar o'zbekona mehmonnavozlik bilan.

Shu o'rinda ozarbayjon shoiri Akif Bag'iming "Yo'l bo'shat, zamona, yo'l bo'shat, jahon, O'zbek kelyapti tarix qaridan", degan o'tashin misralari yodimizga tushadi.

Zotan, qon-qonimizga, jon-jonimizga singib ketgan ulug' qadriyatlarimiz zamirida oilaparvarlik yotadi. Oilaparvar insonlar vatani yo'q'liga berib qo'ymaydi, yurtini, xalqini oilasidek asraydi, ardoqlaydi. Axir Vatan oila ostonasidan boshlanadi-ku!..

Badiiy adabiyot, kitobxonlik ana shunday ezgu fazilatlarini qalblarga jo qiluvchi qudratli vosita.

**Mehribon ABDURAHMONOVA,**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyati bo'limi rahbari

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 37. 38993 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Tadori Tolliboyev  
Musahhir: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy